

## INTELEKTUAL MULK HUQUQI NIZOLARINI ADR ORQALI HAL QILISH. JAHON VA O'ZBEKISTON

Nabijonov Jasurbek

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

XXI asr intelektual mulk asridir. Darhaqiqat, bugungi kunda ko'plab yetakchi davlatlarning rivojlanishida muayyan sohalarning, ayniqsa, aqliy mehnat natijasi bo'lgan intelektual mulk obyektlarining tijoratlashuvi muhim o'rinn tutadi. Shu bilan bir qatorda, intelektual mulk huquqi hozirda nafaqat fuqorolik huquqining, balki umumiyluq tizimidagi dolzARB insititulardan biriga aylanib ulgurgan. Mazkur sohaga oid bo'lgan nizolarni soni ortib borishi esa, ularni hal qilish masalalari, xususan, nizolarni hal qilishni muqobil usullari: "alternative dispute resolution" (ADR) ning takomillashuviga olib kelayapti.

Birinchi navbatda intelektual mulk predmetiga to'xtalib o'tsak. Intelektual mulk bu fan, adabiyot, san'at, ishlab chiqarish hamda boshqa ixtirochilik bilan bog'liq sohalarning ijodiy aqliy faoliyati mahsulidir. Yurtimizda intelektual mulk huquqi muhofazasiga oid jami 5 ta qonun va Adliya vazirligi ro'yxatidan o'tkazilgan imperativ xarakterdagi 25 ta hujjat mavjud. Qolaversa, bu sohada O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar o'rtaida o'nlab davlatlararo va hukumatlararo bitimlar tuzilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, intelektual mulk obyektlari bugungi kunda mamlakatlarning asosiy iqtisodiy manbalaridan biriga aylanib ulgurgan. Binobarin Jahon Savdo Tashkiloti ko'rsatkichlariga nazar tashlasak, yalpi ichki mahsulotning AQShda 60%, Yevropa ittifoqida umumiyluq 45%, Xitoyda 12%, Rossiyada esa 7% qismini intelektual mulk obyektlari tashkil etmoqda. Shu bilan birgalikda, ushbu sohaga oid nizolar soni mos ravishda ortib borayotgani ham sir emas. Albatta, bu raqamlarda ham rivojlangan davlatlar yetakchi o'rinnlarni egallaydi, chunonchi, Butunjahon intelektual mulk tashkiloti vositasida ADR orqali ko'rilgan ishlar soni 2023 yil indeksiga ko'ra AQSHda 15470 ta, Buyuk Britaniyada 3679 ta, Yaponiyada 434 ta, Singapurda 170 ta va O'zbekiston 5 tani tashkil etadi. Ko'rinish turibdiki, aksariyat ilg'or mamlakatlar intelektual mulk bilan bog'liq nizolarni ADR da hal qilishni afzal ko'rmoqdalar. Buning asosiy sabablaridan biri tomonlar kelishilgan tartibda nizoni hal qilishlaridir. Ya'ni ADR da aynan qat'iy belgilangan normalardan ham ko'ra tomonlarning xohish-irodasi muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, ADR da taraflar hakamni (vositachini) o'zlari tanlaydilar, jarayonni o'tkazish vaqtini va joyini mustaqil belgilab oladilar, nizoni hal qilish yechimini o'zlarining xohish-irodasiga ko'ra taklif etishlari mumkin. Intelektual mulk egalari uchun esa bu juda ma'qul yo'l hisoblanadi. Chunki, ADR usulida mualliflik huquqi, ayniqsa, "nou-xau" lar ya'ni tijorat sirlarining maxfiylik masalasi ham nizolarni muqobil hal

etish usulida birmuncha erkindir . Davlatimizda intelektual mulkdorlar qatlamini rag'batlantirish barobarida kelgusida ular bilan bog'liq sodir bo'lishi mumkin bo'lgan nizolarni hal etish chora-tadbirlarini ko'rish va qonunchilikka tatbiq etish oldimizdagi dolzarb vazifadir . Demak , dunyo bilan bo'ylashib borayotgan O'zbekiston ham intelektual mulk nizolarini hal qilishda ADR usulini tanlashi va bu bo'yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishi zarur masalaga aylangan .